

O'QITUVCHI OILA BILAN HAMKORLIKDA ISH OLIB BORISHIDAGI HAMKORLIK TEKNOLOGIYASINING NAZARIYASI

O.M.Kamolova

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 2022-guruhi magistranti

E-mail: kamolovaozodaxon27@gmail.com

Ilmiy rahbar dots. **S.Sh.Ismatov**

Annotation: O'qituvchi oila bilan hamkorlikda ishlashni yanada operativ rivojlantirish, texnologiyasini ko'rib chiqish, ota-onaning faol pedagogik pozitsiyasini shakillantirish, bundan tashqari, hamkorlik texnologiyasining nazariy asoslari, metodlardan unumli foydalangan holda ish olib borish məktəb ta'lim tizimida oila bilan hamkorlikda ish olib borishning mazmun mohiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Hamkorlik, texnologiya, yosh o'qituvchi, pedagogik ta'lim, məktəb, oila, jamoatchilik, aloqa, ota-onalar universiteti.

ТЕОРИЯ ТЕХНОЛОГИИ СОТРУДНИЧЕСТВА ПРИ РАБОТЕ УЧИТЕЛЯ С СЕМЬЕЙ

Аннотация: Более оперативное освоение работы во взаимодействии с семьей учителя, пересмотр ее технологии, формирование активной педагогической позиции родителей, кроме того, теоретические основы технологии сотрудничества, эффективное использование методов работы во взаимодействии с семьей в школьном образовании. система смысл перехода обсуждается.

Ключевые слова: Товарищество, технологии, молодой учитель, педагогическое образование, школа, семья, общественный, контакт, университет родителей.

THEORY OF COLLABORATIVE TECHNOLOGY WHILE THE TEACHER WORKS WITH THE FAMILY

Abstract: More operative development of working in cooperation with the teacher's family, review of its technology, formation of an active pedagogical position of parents, in addition, theoretical foundations of cooperation technology, effective use of methods, working in cooperation with the family in the school education system the meaning of going is discussed.

Key words: Cooperation, technology, young teacher, teacher education, school, family, altruism, relation, university of parents.

Sh.Mirziyoyev birinchi prizidentimiz I.A.Karimov-ezgu go‘ya va vasiyatlari asosida ta’lim va tarbiya sohasidagi tub islohatlarni yuksak bosqichga ko‘tarish, mamlakatimiz taqdiri va kelajagi uchun ma’suliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘lgan yangi avlod kadrlarini voyaga yetkazishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish hammamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas burchimiz bo‘lib, biz bu yo‘lda birinchi navbatda, siz, azizlarga, sizlarning bilim va malakangiz, tajriba va mahoratingizga tayanamiz¹ –deb bo‘lajak, yosh kadr va ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi malakali , mahoratli, bilimli ustozlarga murojaat qilmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz taqdiri sifatli kadrlarga ehtiyoji bor. Sifatli kadrlarni esa hali ta’lim muassasalarda o‘qigan paytlarida tayyorlab borish kerak.

“Texnologiya” yunoncha so‘z bo‘lib, “texnos” - mahorat, san’at, “logos”² - fan, ta’limot ma’nolarini anglatadi. Texnologiya” tushunchasi - tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llaniladigan usul va metodlar majmui va shunday usul va metodlarni ishlab chiqaruvchi va takomillashtiruvchi fan sifatida ta’riflanadi.²

¹ Sh.Mirziyoyev.Milliy tarqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz.Toshkent:.lO‘zbekistonl-2017. 24-b .

² Z. K. Ismailova R. S. Musayev , A. A. Shayusupova- O’qitishning zamonaviy texnologiyalari o’quv qo’llanma.,T-2010, TIMI, 12-bet.

Pedagogik texnologiya asosan subyektiv xususiyatga ega. Undagi shakl, metod, vosita va usullar yordamida yosh kadrlar o‘z faoliyatida unumli foydalanadilar. Demak texnologiyalar quyidagi qoida asosida bo‘lishi zarur:

- pedagogik faoliyatning samaradorligini tubdan oshirishi;
- malakali o‘qituvchilar va o‘quvchilar va ularning oilasi o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o‘quvchilar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta’minlashi;
- o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrash ko‘nikmalarini keskin shakllantirishi;
- o‘quvchilarlarning o‘z shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni keskin yaratishi;
- pedagogik ta’lim jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi lozim.

Ammo shuni yodda saqlash joizki, pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish aslo mumkin emas. Balki, tajribali o‘qituvchilar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofikdir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda sifatli o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba amalga joriy qilindi. Misol uchun aytishimiz mumkinki, hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi ko‘plab mamlakatlardagi, jumladan, Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori – R.Slatin (1990), Minnesot universiteti professori – R.Jonson, D.Jonson (1987), Koliforniya universiteti professori – SH.SHaron (1988), tomonidan ishlab ishlab chiqilganligini guvohi bo‘lamiz.

Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o‘qitish, asosan bo‘lajak kadrlarimiz bo‘lmish o‘quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, Isroil va Evropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o‘qitish, yuqorida qayd etilganidek, ko‘plab o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini qayta ishlash loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o‘quv bahsi va munozaralar o‘tkazishni nazarda tutadi. Bundan ko‘rinib turibdiki,

hamkorlikda ishslash nafaqat o‘qituvchi balki o‘quvchilar uchun ham birdek vazifa yuklar ekan. Maktab va oila hamkorligi har doim samarali bo‘lib kelgan. O‘quvchining ta’lim va tarbiya olishi mакtab tomonidan to‘la qonli ta’minlanishi uchun oila hamkorligi kerak bo‘ladi. Boladagi kamchiliklarni o‘qituvchi bilan birga ota-onam ham to‘ldirishi va nazorat qilishi ta’lim jarayonidagi juda muhim masaladir. Bu hamkorlik o‘quvchidagi muammoli nuqtalarni tezda anqilashga va ijobjiy yechim topishga yordam beradi.

Hamkorlikda o‘qitishni bir nechta metodlarini hamda ularga doir mashqlarni sanab o‘tamiz. R.Slavin, D.Jonson, R.Jonsonlar ishlab chiqqan metodlar haqida so‘z yuritamiz.

Komandada o‘qitish metodi

Bu R.Slavin tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quvchilar teng sonli ikki komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Bunda komanda a’zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga e’tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o‘qitishning «Birgalikda o‘qiymiz» metodi

Ushbu metod, hamkorlikda o‘qitishning «Birgalikda o‘qiymiz» metodi 1987-yili Minnesot universiteti professorlari D.Jonson, R.Jonsonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Demak bunda, sinf o‘quvchilari 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratiladi. Har bir guruh darsda bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqni ma’lum qismini bajaradi. Guruhlar topshiriqlarning to‘liq bajarilish natijasida o‘quv materialining yaxlit o‘zlashtirilishiga erishiladi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, mazkur metodning asosiy prinsiplari-komandani taqdirlash, o‘quvchilarga individual yondashish, muvaffaqiyatlarga erishish uchun bir xil imkoniyatlarni vujudga keltirishdan iborat.

**Pedagogika – psixologiya fanida
hamkorlikning 8 ta shakli
mavjud.**

- mustaqil harakatlar o‘qituvchi bilan o‘quvchi hamkorlikda bajaradilar;
- faoliyatga kirish;
- o‘qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o‘quvchini jalb etadi;
- taqlid harakatlari (o‘qituvchidan ibrat olgan o‘quvchi anna shu namuna asosida harakat qiladi);
- madad harakatlari (o‘qituvchi o‘quvchiga oraliq mAqsadni va unga erish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi);
- o‘zini – o‘zi boshqarish harakatlari (o‘qituvchi umumiy maqsadni ko‘rsatishda oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi);
- o‘zini – o‘zi ko‘rsatuvchi harakatlar;
- o‘zini – o‘zi uyushtiruvchi harakatlar.

Ota-onal bilan hamkorlik qilish texnologiyasidan foydalanar ekanmiz, bir qator tadqiqotlardan foydalangan holda amalga oshiramiz.

Empirik taqdiqot

Empirik tarzda oila va uy tarbiyasini tavsiflovchi faktik materiallar to‘plangan. Oila tarbiyasi tajribasini o‘rganish uchun, birinchi navbatda, kuzatish, suhbat, pedagogik maslahat, mustaqil xarakteristikalar usuli, kompozitsiyalar usuli, tajribani o‘rganish va umumlashtirish, tajribani o‘rganish kabi an’anaviy pedagogik usullar qo‘llaniladi. bolalar faoliyati, hujjatlarni o‘rganish, ish tajribasi, pedagogik tajriba va boshqalar.¹

Kuzatish - bu kuzatilayotgan xatti-harakatni uning ma’nosini, motivlari, mazmunini aniqlash uchun qasddan, tizimli va maqsadli idrok etishdan iborat bo‘lgan usul. Kuzatishda ro‘yxatga olish birligi u yoki bu harakat, xatti-harakatlar bo‘ladi.

Suhbat - bu uning ishtirokchilarining hamkorligi bilan og‘zaki muloqotga asoslangan ma’lumot olish usuli.

¹ Коваленко Ирина Рафаиловна Методы изучения семьи <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/406694-metody-izuchenija-semi>, 2020

Odatda bu usul boshqa usullar yordamida qilingan ba'zi faraziy xulosalarni tasdiqlash, konkretlashtirish yoki rad etish uchun foydalaniladi.

"Mening bolam" ni insho yozish usuli.

Demak, bu insholarni o‘rganish orqali o‘qituvchi bolaning xarakterini, uning qiziqishlari, qobiliyatlarini, sevimli mashg‘ulotlarini, oila sharoitida rivojlanishining ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rishi va shu asosda o‘quvchining mustaqil tavsifini tuzishi, tanlashi mumkin bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, o‘qituvchi ota-oná bilan hamkorlikda ish olib borar ekan, hamkorlik texnologiyasidan albatta foydalana olishi kerak ekan. Bolaning oilasini o‘rganish uning oilasi bilan yaqindan tanishish,muloqot qilish,oilaning turmush tarsi,psixologiyasi,madaniyati va ularning moddiyati bilan birgalikda ko‘rib chiqilsagina maqsadga muvofiq ish bo‘lar edi. Hamda yosh avlodni zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan bilimlar yordamida tarbiya va ta’limni uzviyligini ta’minlash maqsadida bir qancha izlanishlar va tavsiyalar yuzasidan amaliy ishlar olib borishni lozim deb hisoblaymiz. Bu yo‘nalishda turli usullardan foydalanib tahliliy va tadqiqotlarni amalga oshirilishiga zamina yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev.Milliy tarqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz.Toshkent:||O‘zbekiston||-2017. 24-b. www.ziyouz.com
2. Коваленко Ирина Рафаиловна Методы изучения семьи <https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/406694-metody-izuchenija-semi> 2020
3. Atayeva N.Salayeva.M.Hasanov.S- Umumiý pedagogika -Toshkent-2013
4. J.Yo‘ldoshev, S.Usmonov- Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent:|| O‘zbekiston|| - 2004.
5. Z. K. Ismailova R. S. Musayev , A. A. Shayusupova- O‘qitishning zamonaviy texnologiyalari o‘quv qo‘llanma.,T-2010, TIMI, 12- bet